

## ALOHIDA YORDAMGA MUHTOJ BO‘LGAN BOLALARNING TA’LIMIDA INKLYUZIV TA’LIM TIZIMI

**Xayitboyeva Rohilaxon Adahamjon qizi**

Nizomiy nomidagi Toshkent Davlat Pedagogika Universiteti,  
Maxsus pedagogika va inklyuziv ta'lim fakulteti,  
Surdopedagogika yo‘nalishi, 203-guruh talabasi  
[xayitboyevaruhila@gmail.com](mailto:xayitboyevaruhila@gmail.com)

### ANNOTATSIYA

Inklyuziv ta'lim tizimi alohida yordamga muhtoj bolalarning hayotida muhim ahamiyat kasb etadi. Shu sababli inklyuziv ta'limni tashkil etishga uning maqsadi, tamoyillari va vazifalariga alohida e'tibor qaratilmoqda. Maxsus yordamga muhtoj bo'lgan bolalar ta'lim tarbiyasi, ularni o'qish va yozishga o'rgatish muammolari, ijtimoiy hayotga moslashtirishga ko'mak berish, bu ishlarni samarali amalga oshirish, maxsus soha xodimlari hamda alohida yordamga muhtoj bo'lgan bolalarning otalariga amaliy yordam berilmoqda.

**Kalit so'zlar:** Inklyuziv ta'lim, integratsiya, alohida yordamga muhtoj, ixtisoslashtirilgan, nuqson, korreksiya.

## INCLUSIVE EDUCATION SYSTEM IN THE EDUCATION OF CHILDREN NEEDING SPECIAL ASSISTANCE

### ABSTRACT

An inclusive education system plays an important role in the lives of children with special needs. Therefore, the organization of inclusive education pays special attention to its goals, principles and objectives. Education of children with special needs, problems of teaching them to read and write, assistance in their adaptation to social life, the effective implementation of this work, special services and parents of children with special needs. practical assistance is provided to mothers.

**Keywords:** Inclusive education, integration, special assistance, specialized, deficient, correction.

## СИСТЕМА ИНКЛЮЗИВНОГО ОБРАЗОВАНИЯ В ОБРАЗОВАНИИ ДЕТЕЙ, НУЖДАЮЩИХСЯ В СПЕЦИАЛЬНОЙ ПОМОЩИ

## АННОТАЦИЯ

Система инклюзивного образования играет важную роль в жизни детей с особыми потребностями. Поэтому при организации инклюзивного образования особое внимание уделяется его целям, принципам и задачам. Воспитание детей с особыми потребностями, проблемы обучения их чтению и письму, помощь в их адаптации к общественной жизни, эффективное осуществление этой работы, специальные службы и родители детей с особыми потребностями, матерям оказывается практическая помощь.

**Ключевые слова:** инклюзивное образование, интеграция, специальная помощь, специализированная, дефективная, коррекция.

Inklyuziv ta'lim bu – alohida yordamga muhtoj bo'lgan bolalar bilan sog'lom bolalar o'rtasidagi to'siqlarni bartaraf etish maqsadida rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalarni, ularning nuqsoni darajasiga qarab sog'lom tengdoshlari bilan birgalikda ta'lim va tarbiya olish imkonini beruvchi ta'lim tizimi hisoblanadi.

Barcha ta'lim tizimlarining maqsad va vazifalari bo'lgani kabi inklyuziv ta'limning ham o'z vazifalari mavjud. Bularga quyidagilar kiradi:

- Ta'lim muassasalarida alohida yordamga muhtoj bo'lgan bolalar va o'smirlarning ta'lim olishlari uchun zarur bo'lgan psixologik, umumta'lim pedagogik hamda korreksion shart-sharoitlar yaratish, ularning imkoniyatiga mos dasturlarini ishlab chiqish;
  - Maxsus ta'lim muassasasi o'quvchilarini umumta'lim maktablari bilan uyg'unlikda faoliyat olib borishi yo'li bilan o'quvchilarning ta'limdagi tenglik huquqini kafolatlash;
  - Alohida yordamga muhtoj hamda sog'lom bolalar o'rtasidagi to'siqlarni bartaraf etishda jamiyat va oilaning faol ishtirokini ta'minlash;
  - Bolaning ehtiyojlarni qondirish;
  - Alohida yordamga muhtoj bolalarni jamiyatga, ijtimoiy hayotga erta moslashtirish;
  - Imkoniyati cheklangan bolalar va o'smirlarni oilalaridan ajralmagan holda yashash huquqini ro'yobga chiqarish; [1]
- Albatta alohida yordamga muhtoj bolalarni sog'lom bolalar bilan birgalikdagi ta'lim tizimini tashkil etishdan oldin inklyuziv ta'limda ham bir qancha tamoyillar ishlab chiqilgan. Quyida esa inklyuziv ta'limga kiritishning asosiy tamoyillari keltirilgan:
- Inklyuziv ta'limning e'tirof e'tilishi;
  - Inklyuziv ta'limning barcha uchun ochiq bo'lish tamoyili;

- Bog‘lanishning mavjud bo‘lish tamoyili;
- Markazlashtirilmagan bo‘lish tamoyili;
- Inklyuziv ta‘limda kompleks yondashish tamoyili;
- Inklyuziv ta‘limda moslashuvchanlik tamoyili;
- Malakaviylik tamoyili. [1]

Keling endi mana shu tamoyillarni tahlil qilib ko‘ramiz. Birinchi navbatda inklyuziv ta‘limning e‘tirof e‘tilishiga to‘xtalsak. Aslini olib qarajak inklyuziv ta‘lim tushunchasi bizga yaqin orada kirib kelgan tushuncha hisoblanmaydi. Alohida yordamga muhtoj bo‘lgan bolalarni integratsiyasi haqida 1990-yildan buyon bir qancha deklaratsiya va qonunlar qabul qilingan. Lekin bu qonunlarni hayotga tadbiiq etishda ko‘plab muammolar yuzaga kelgan. Shuning uchun ham inklyuziv ta‘limni e‘tirof etgan holda, aholi o‘rtasida targ‘ibot-tashviqot ishlarini olib borish birinchi o‘rindagi masala hisoblanadi. Ko‘plab davlatlarda bunday targ‘ibot ishlari olib borilib, alohida yordamga muhtoj bolalarning integratsiyasi va integratsiyalashgan ta‘lim tarbiyasi allaqachon yo‘lga qo‘yilgan.

“Integratsiya” tushunchasining o‘zi nima? “Integratsiya” tushunchasi ingliz tilidan olingan bo‘lib, integrative-qo‘shiluvchi, birlashuvchi, integration – qo‘shilish, birlashish degan ma‘nolarni anglatadi. Integratsiyaning o‘zi ham ikki xil ko‘rinishda bo‘ladi:

- Ijtimoiy integratsiya;
- Pedagogik integratsiya;

Pedagogik integratsiya ya‘ni jismoniy, aqliy yoki hissiy rivojlanishida nuqsoni bo‘lgan bolalarni sog‘lom bolalar bilan ta‘limini tashkil etish. AQSH da mazkur sohada “inklyujen” dasturi faoliyat ko‘rsatadi. Mazkur “inklyujen” dasturi, hattoki, Daun sindromli bola ham sog‘lom bolalar bilan ta‘lim olish imkoniyatiga ega bo‘lishini nazarda tutadi. Albatta, bunday bola uchun alohida dastur, o‘ziga xos osonlashtirilgan topshiriqlar ishlab chiqilib, dasturni samarali amalga oshirish ko‘p tomondan o‘qituvchiga bog‘liq. Lekin, AQSH da bu modelni tadbiiq etish bilan bir qatorda maxsus maktablardan ham butunlay vos kechilmagan. Biroq bolani u yerga joylashtirish eng oxirgi chora hisoblanadi. Endishu joyiga biroz e‘tibor qaratsak. Nega AQSH integratsiyalashgan ta‘limni yo‘lga qo‘ygan bo‘lsa ham, maxsus maktablardan butunlay vos kechmadi? Sababi shundaki, ta‘limga integratsiya va maxsus maktablarni mavjudligi ikki o‘zaro parallel zaruriy shartlar hisoblanadi.

Inklyuziv ta‘lim tushunchasini yana bir davlat misolida ko‘rib chiqsak. Angliyaning ham ko‘pgina regionlarida va ba‘zi boshqa mamlakatlarda imkoniyati cheklangan bolalarni maktabgacha tarbiya yoshida “Potedj” tizimidan samarali foydalanib

kelinadi. Mazkur tizim 1970-yillarda AQSH da vujudga kelib, uning asosini har bir bolaga uning xususiyatlarini inobatga olgan holda individual tarzda tuzuluvchi dastur tashkil etadi. [1]

Shunday qilib, hozirgi paytda ko'pgina mamlakatlarda alohida yordamga muhtoj bolalarning imkoniyatlari va ehtiyojarini inobatga olgan holda alohida ta'lim va tarbiya berishdan inklyuziv ta'limga o'tilib kelinmoqda. Aslina olib qaraganda O'zbekistonda ham bu ta'lim tizimini tashkil etish ancha yillar oldin boshlangan, lekin bu yo'lda bir qancha muammolar paydo bo'lgan. Inklyuziv ta'limni tashkil etish uchun maktablarda kerakli shart – sharoitlarning mavjud emasligi, resurs o'qituvchilarning yetishmasligi va eng asosiysi aholining bu tizim haqida yetarli bilim va ma'lumotlarga ega emasligi bu tizimning rivojlanishiga to'siq bo'ldi. Inklyuziv ta'limni joriy qilish ham asosan shaharlarda tashkil qilinib chekka qishloqdagi alohida ta'lim olishga ehtiyoji bor bolalar ta'limdan chetda qolib ketmoqdalar chunki ota – onalar nogiron farzandini shahardagi maxsus muassasalarga qatnashlarini ta'minlashda qiyinchilikka duch kelmoqdalar. Bugungi kunga kelib respublika bo'yicha jismoniy yoki ruhiy rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalar uchun jami 86 ta ixtisoslashtirilgan maktab va maktab-internatlarda 21,2ming nafar, 21 ta sanatoriya turdagi maktab-internatlarda 6,1 nafar o'quvchilar ta'lim – tarbiya oladi. Shuningdek, uzoq muddat davolanishga muhtoj bo'lgan 13,3 ming nafar o'quvchilar uyda yakka tartibda o'qitiladi.[2]

Avvalambor, inklyuziv ta'limni tashkil etish deganda biz faqatgina alohida yordamga muhtoj bolalarni sog'lom bolalar bilan bir maktabda yoki bir sinfda o'tirib o'qishini tushunmasligimiz kerak, ularga faqatgina nuqson jihatidan yondashmasligimiz kerak. Biz ularga boshqa bolalardek bir xil e'tibor qaratishimiz ularga har tomonlama yondashishimiz lozim. Bu esa maxsus ehtiyojli bolalar uchun ta'lim masalasini rejalashtirayotgan uning butun hayoti davomida yuzga kelishi mumkin bo'lgan ehtiyojini hisobga olgan holda ta'lim bersihni talab etadi. Bundan tashqari inklyuziv ta'limda alohida ehtiyojli bolalardagi nuqsonni bartaraf etish, korreksiyalash bilan bir qatorda bilim, ko'nikmalarga ega qilish, kasb-hunarga o'rgatish ishlarini parallel ravishda olib borish kerak. Eng asosiy jihatlaridan yana biri bunday bolalar ta'limi boshlang'ich va o'rta maxsus ta'limni olishlari bilan yakunlanmasligi kerak. Ularga kasb-hunar ta'limi va oily ta'lim ham amalga oshirilishi kerak. Chunki inklyuziv ta'limning vazifalaridan biri maxsus ehtiyojli bolalarni har tomonlama rivojlantirish, ularning barcha huquqlarini ta'minlashdan iboratdir. Inklyuziv ta'lim tizimi tashkil etilgan maktablarda alohida ta'limga muhtoj bolalarning ta'lim olishlari uchun barcha shart-sharoitlar mavjud bo'lishi, dastur va darsliklar ham ularning ehtiyojidan kelib chiqqan holda bo'lishi eng asosiysi esa boshqa bolalarning u haqidagi fikrlarini o'zgartirish lozim. Chunki bunday bolalarning hayoti asosan yakkalab qo'yishlar bilan

bog'liq bo'ladi. Shuning uchun ham inklyuziv sinf o'qituvchisi ham bu soha bo'yicha bilimga ega bo'lishi va sinf o'quvchilariga to'g'ri ma'lumotlar bera olishi kerak. Lekin hozirgi kunda inklyuziv ta'lim tizimini sohaga joriy qilishda muammolar ham yo'q emas albatta. Masalan :

- Alohida ta'lim ehtiyoji bo'lgan bolalar o'qitiladigan ayrim ta'lim muassasalarida to'siqsiz muhit va imkoniyatlar yaratilmagan;
- Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarning bilim olish huquqi , inklyuziv ta'lim tizimining mazmun-mohiyati haqida jamoatchilik o'rtasida tushuntirish ishlari olib borish yo'llari qoniqarli darajada bo'lmagani sababli ota –onalar ham bu haqida yetarli ma'lumotlarga ega emas;

Lekin hozirgi kunga kelib bunday muammolarni bartaraf etish uchun O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29- apreldagi "O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5712-son farmoni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 13-oktabrdagi PQ-4860-son qarori" ga muvofiq 2020-2025 yillarda xalq ta'limi tizimida inklyuziv ta'limni rivojlantirish konsepsiyasi qabul qilindi. Ushbu konsepsiyaga muvofiq:

- Inklyuziv ta'lim tizimi uchun pedagog kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish;
- Inklyuziv ta'limda o'qitish usullarini takomillashtirish, mazkur jarayonga individuallashtirish tamoyillarini bosqichma-bosqich tadbiiq etish;
- Inklyuziv ta'lim jarayonida o'quvchlarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalash, bolaning jismonan sog'lom va baquvvat shakllanishiga erishish;
- Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ko'rsatiladigan ta'lim xizmatlari sifatini yaxshilash;
- Inklyuziv ta'lim sohasiga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va innovatsion loyihalarni joriy etish;
- Inklyuziv ta'lim muassasalarining moddiy-texnik bazasini mustahkamlash va ularni budjetdan moliyalashtirish samaradorligini oshirish;
- Inklyuziv ta'limga jalb qilingan bolalarning ta'lim-tarbiyasi uchun qo'shimcha sharoitlar yaratishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlarni o'z ichiga olgan beshta tashabbusni amaliyotga tadbiiq etish ishlari ko'zda tutilgan. [3]

## XULOSA

Xulosa qilib shuni ta'kidlash mumkinki, ta'lim sohasida yordamga muhtoj bolalarning tahsil olishlari hamisha jamiyatning diqqat markazida turgan dolzarb masala hisoblanib kelgan. Shu bois ham alohida yordamga muhtoj bolalarning

ta'limiga inklyuziv ta'lim tizimi joriy etilmoqda. Chunki, maxsus ehtiyojli bolalarni umumta'lim muassasalari tizimida o'qitish ularning haq-huquqlarini ta'minlaydi, kelajakda o'z hayot yo'llarini belgilashda muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. M. U . Xamidova." Maxsus pedagogika" ( Toshkent 2018)

[1] 7-13 betlar.

2. “ INKLUZIV TA'LIM : STRATEGIYA, FAN, AMALIYOT VA TEXNALOGIYALAR “ ilmiy-amaliy xalqaro onlayn konferensiya materiallari. 10-dekabr, 2021-y. (Qo'qon-2022 )

3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020- yil 13- oktabrdagi PQ- 4860 son qarori.

[2] 2020-2025-yillarda Xalq ta'lim tizimida inklyuziv ta'limni rivojlantirish konsepsiyasi. 2-bob [ 3]

4. <https://hozir.org>.

5. <https://kun.uz/uz/news/2021/03/18/>

6. <https://lex.uz/docs/-5044711>